

1-bo'lim. Ip bilan ishlash. Qurilmalar va mexanizmlar. (9 soat)

1-dars. Ip

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda ip, uni tayyorlash texnologiyasi, foydalanish usullari, ipning kelib chiqish tarixi, ipak va jun ishlab chiqarish haqida tasavvurlarni shakllantirish;
- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirish;
- ip (ipak, jun) bilan ishlash orqali o'quvchilarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, oldingi sinflarda (1-, 2-, 3-o'quv yili) o'rganilgan fan bo'yicha bilimlarni faollashtirish uchun savollar beradi.

Nazariy qism (5-7 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarga mamlakatimizda va chet ellarda ishlab chiqarilayotgan ip turlari haqida so'zlab beradi.

Ip – tolalarni pishitish yo'li bilan olingan ingichka tola. Ip yigirish qadimiy tarixga ega. Bundan 20 ming yil avval odamlar o'simlik tolalari va hayvon junidan ip olishni o'rganganlar. Ular kaftlari orasidan tolalarni o'tkazib, ularni aylantirar va shu yo'l bilan ip hosil qilganlar. Taxminan miloddan avvalgi 5 ming yillikda, ya'ni g'ildirak ixtiro qilinishidan ming yil oldin urchuq paydo bo'lgan. Dastlab bular oddiy to'g'ri tayoqchalar bo'lib, odatda, ip o'ralgan uchini mahkamlash uchun o'yiqli bilan ta'minlangan edi. Tayoqchada suyakdan yasalgan ilgaklar paydo bo'lgach, odam ipni urchuqqa to'liqlik o'ray olgan. Keyinchalik Hindistonda (2500 yil avval) o'zi yigiradigan charx paydo bo'ldi. O'rta asrlarda Leonardo da Vinchi ko'p parrakli yigiruv mashinasini ixtiro qildi. Shu paytdan boshlab ip olish jarayoni ancha tezlashdi. Zamonaviy yigiruv ishlab chiqarishi takomillashtirilgan va deyarli to'liqlik avtomatlashtirilgan. Bugungi kunda bunday korxonalar yiliga bir necha ming tonna ip ishlab chiqarmoqda.

Amaliy qism (10 daqiqa).

Tushuntirishdan so'ng o'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

- Ip nima?
- Charx nima?
- U kundalik turmushda nima uchun ishlatiladi?
- Ipni qanday sohalarda qo'llash mumkin? Nima maqsadda?

"Ip nimalardan tayyorlanadi" mavzusida klaster tuzish.

O'qituvchi savollar beradi:

Ip nimalardan tayyorlanadi? (*O'quvchilar darslikning 5-betidan ko'rsatma topishlari mumkin - paxta, zig'ir, hayvon juni, ipak qurti pillasi*).

Sizningcha, hayvon tolalaridan qanday iplar tayyorlanadi? (*Jun, ipak*).

Qaysi hayvonlarning junidan ip tayyorlanadi? (*Qo'y, quyon, tuya, lama, echki*).

O'qituvchi o'quvchilarning barcha javoblarini doskada klaster shaklida qayd etadi.

O'simliklardan olingan qanday iplarni bilasiz? (*Paxta va zig'ir*)

Sizningcha, ipak qurti pillasidan qanday ip tayyorlanadi? Bu o'simlik yoki hayvon ipi hisoblanadimi?

Nazariy qism (5-7 daqiqa).

Sifatli **ipak** noyob hasharot - ipak qurti pillalaridan olinadi. U o'z pillasini tanasida ajralib chiqadigan modda hisobiga hosil qiladi. Modda vaqt o'tishi bilan qotib, ipak ipini hosil qiladi. Yettinchi-to'qqizinchi kuni pillaga bug' bilan ishlov beriladi. Keyin pilla maxsus cho'tka bilan "taraladi". So'ngra mavjud tolalar ehtiyotkorlik bilan yechiladi, natijada ingichka ip hosil bo'ladi, uning uzunligi ba'zan 1500 metrgacha yetadi.


Jun – bu hayvonlarning jun qoplami: qo'y, echki, tuya, lama. Junning asosiy qismini qo'ylar (95%) beradi. Jun qoplami maxsus qaychi yoki mashinalar bilan olinadi. Jun tolalarining uzunligi 2 cm dan 4,5 cm gacha bo'ladi. Jun (qirqim) deyarli butun uzluksiz massa shaklida qirqiladi. Jun to'qimachilik fabrikalariga jo'natilishidan oldin birlamchi ishlovdan o'tkaziladi: saralanadi, ya'ni tolalar sifatiga qarab tanlanadi; titiladi - yumshatiladi va iflosliklardan tozalanadi; issiq suvda sovun va soda bilan yuviladi; quritish mashinalarida quritiladi. Faqat shu barcha jarayonlardan keyingina xomashyodan ip tayyorlanadi.

Amaliy qism (12-15 daqiqa).

Og'zaki topshiriq. Rasmlarga qarang va qaysi buyumlar ipakdan, qaysilari jundan tayyorlanganini aytib bering.

1. Sizningcha, yozgi kiyimlar uchun qaysi material, qishki kiyimlar uchun qaysi material ko'proq mos keladi?

2. Qanday buyumlarni tayyorlashda ipak va jun iplardan foydalaniladi? O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini doskadagi klasterga yozishda davom etadi.



Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi. O'quvchilarga mustaqil tayyorgarlik sifatida kimyoviy toladan olingan sun'iy ipning qanday afzalliklari borligi haqida internet tarmog'idan ma'lumot izlash tavsiya etiladi.

O'qituvchi keyingi darsda bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ish bilan tanishib chiqishni va kelgusi dars uchun zarur bo'ladigan materiallar ro'yxatini tuzishni taklif etadi.

2-dars. Chittak

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda ip bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ip bilan ishlash orqali o'quvchilarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish..

Kerakli materiallar: oq va qora qog'oz, yelim, qaychi, oddiy qalam, o'chirg'ich, ip g'altagi.